

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№5

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026 MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEKANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI	10
Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna	
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА	19
Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишеревич	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	28
Габбарова Ильмира Володиевна	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLOATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH	34
Amirov Shavkat Rahmatullayevich	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	41
Усманова Азиза Баходировна	
PEREGONDAGI HARAKATNI BOSHQARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSESSORLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIQISH	46
Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	55
Alimova Dilafro'z Tohir qizii	
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	61
Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi	
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHANGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR	67
Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ..	75
Rajapov Xayrulla Bekdurdievich, Sharipova Lobar Umrbek qizi	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI

Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich

Urganch RANCH texnologiya universiteti, iqtisodiyot kafedrası dotsenti, PhD
ORCID: 0009-0004-2451-1531

Sharipova Lobar Umrbek qizi

Urganch RANCH texnologiya universiteti, I
iqtisodiyot magistratura mutaxassisligi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligining hozirgi rivojlanish holati kompleks yondashuv asosida tahlil qilingan. Unda agrar tarmoqda ishlab chiqarish hajmining o'zgarish dinamikasi, hududlar kesimidagi tarkibiy tafovutlar, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari yetishtirish ko'rsatkichlari hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda xo'jalik yurituvchi subyektlarning ulushi ilmiy jihatdan o'rganilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, agrar sektor, dehqonchilik, chorvachilik, dehqon va tomorqa xo'jaliklari, fermer xo'jaliklari, o'rmon xo'jaligi, baliqchilik xo'jaligi, oziq-ovqat xavfsizligi, hududiy rivojlanish, ishlab chiqarish samaradorligi.

Аннотация. В данной статье на основе комплексного подхода проанализировано современное состояние развития сельского хозяйства Республики Узбекистан. В ней научно исследованы динамика изменения объемов производства в аграрной отрасли, структурные различия в разрезе регионов, показатели производства продукции растениеводства и животноводства, а также доля хозяйствующих субъектов в производстве сельскохозяйственной продукции.

Ключевые слова: сельское хозяйство, аграрный сектор, растениеводство, животноводство, дехканские и подсобные хозяйства, фермерские хозяйства, лесное хозяйство, рыбное хозяйство, продовольственная безопасность, региональное развитие, эффективность производства.

Abstract. This article analyzes the current state of agricultural development in the Republic of Uzbekistan based on a comprehensive approach. It examines the dynamics of changes in production volumes in the agricultural sector, structural differences across regions, indicators of crop and livestock production, as well as the share of economic entities in agricultural output.

Keywords: agriculture, agricultural sector, crop production, livestock production, dehqan and household farms, farmer enterprises, forestry, fisheries, food security, regional development, production efficiency.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi tarmog'i oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholi bandligini qo'llab-quvvatlash, sanoat tarmoqlari uchun barqaror xomashyo bazasini shakllantirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishda strategik ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor sohalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi o'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlaridan iborat. O'simlikchilik tarmog'iga paxta, donli ekinlar (asosan bug'doy), kartoshka, sabzavot, poliz va yem-xashak ekinlari, o'simlik yog'i beruvchi ekinlar (masalan, kunjut, kungaboqar), shuningdek, bog'dorchilik va uzumchilik kiradi. Chorvachilikda esa qoramolchilik, qo'y va echkichilik, parrandachilik, yilqichilik, quyonchilik, tuyachilik hamda cho'chqachilik yo'nalishlari shakllangan va rivojlangan. Bundan tashqari, respublika qishloq xo'jaligida pillachilik, asalarichilik va baliqchilik sohalari ham izchil rivojlanib bormoqda [1].

Mazkur tarmoqning iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalari uning mamlakat milliy xavfsizligi, ichki bozor barqarorligi hamda aholining turmush darajasi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, agrar sohani davlat tomonidan tartibga solish bozor munosabatlarini institutsional jihatdan mustahkamlash, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishni

ta'minlash, shuningdek, aholining sifatli va barqaror narxlardagi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy siyosat sifatida namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, agrar boshqaruv tizimini takomillashtirish, sohada bozor mexanizmlarini chuqurlashtirish, ishlab chiqaruvchi, qayta ishlovchi va realizatsiya qiluvchi subyektlar o'rtasidagi iqtisodiy-huquqiy munosabatlarni mustahkamlash, investitsion faollikni oshirish hamda resurs tejankor va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha izchil institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019–2023 dagi “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF–5853-son Farmoni¹ [2] bilan tasdiqlangan strategiya asosida tizimli ravishda olib borilmoqda. Mazkur strategiya agrar sohani uzoq muddatli rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, tabiiy resurslardan barqaror foydalanish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari qiymat zanjirini kengaytirishning muhim konseptual asosi sifatida xizmat qilmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev: “Asosiy maqsadimiz — qishloq xo'jaligini ilmiy asoslangan holda, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining ilg'or tajribalarini tatbiq etish orqali rivojlantirishdir”, — deya ta'kidlaganlar [3].

Mazkur yondashuv qishloq xo'jaligini rivojlantirishda an'anaviy usullar bilan cheklanib qolmasdan, ilm-fan yutuqlari, xalqaro tajriba va innovatsion texnologiyalarga tayanish zarurligini ko'rsatadi. Xususan, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti ilg'or tajribalarini milliy agrar siyosatga tatbiq etish hosildorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash hamda mahsulotlar raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, O'zbekistonda agrar sohani modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishi ilmiy asoslangan boshqaruv, raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalar va xalqaro standartlarni joriy etish orqali barqaror rivojlanishga erishishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligining bugungi rivojlanish jarayonlarini ilmiy jihatdan baholash agrar tarmoqni iqtisodiy, institutsional, resurs salohiyati va ijtimoiy omillar kesimida yaxlit tahlil qilishni talab etadi. Ilmiy hamda rasmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakat agrar sohasi so'nggi yillarda faqat an'anaviy ishlab chiqarishga tayangan tizimdan bosqichma-bosqich bozor mexanizmlari, resurslardan oqilona foydalanish, klaster asosida tashkil etilgan ishlab chiqarish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan zamonaviy modelga o'tmoqda.

Mazkur jarayonda “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi” agrar siyosatning konseptual asoslarini belgilab bergan muhim dasturiy hujjat sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Strategiyada qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ining barqaror rivojlanishini ta'minlash, bozor munosabatlarini chuqurlashtirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish, investitsion faollikni oshirish hamda yer va suv resurslaridan samarali foydalanish ustuvor vazifalar qatorida belgilangan.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish va uni qo'llab-quvvatlashning ilmiy-nazariy asoslari hamda usullari xorijiy olimlar — Joanna Lankoski, Anja Thiem, Sichev S. M., Belchenko S. A., Malyavko G. P., Dronov A. V., Osipov A. A., Kilimnik Ye. V., Klimentova E. A., OECD ekspertlari va boshqalarning ilmiy izlanishlarida atroflicha muhokama qilinib, keng yoritilgan [4–8].

Respublikamizda qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalalari, uni qo'llab-quvvatlashning ilmiy-nazariy asoslari hamda usullari mahalliy iqtisodchi olimlar — Yusupov M. S., R. X. Ergashev, Sh. Sh. Fayziyeva, S. N. Xamrayeva, N. X. Bekmurodov, A. F. Sayfulina, R. A. Islomova, U. Sangirova, M. Yaxyayev, I. Salamov, Z. S. Kazakova, M. Nazarova, S. S. G'ulomov va boshqalarning ilmiy asarlarida o'z aksini topgan [9–15].

S. M. Sichev, S. A. Belchenko, G. P. Malyavko, A. V. Dronov va A. A. Osipovlarning “Agrosanoat rivojlanish dinamikasi (Bryansk viloyati misolida, 2022–2023-yillar)” nomli maqolasida Bryansk viloyatidagi agrosanoat kompleksining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, investitsiyalar, texnologik innovatsiyalar va eksport salohiyati hisobiga barqaror rivojlanayotgani asoslab berilgan. Mazkur tadqiqotda qishloq xo'jaligi mintaqaviy iqtisodiyot hamda oziq-ovqat xavfsizligining asosiy ustuni sifatida baholangan.

Klimentova Elvira Anatolyevnaning ilmiy maqolasida Rossiya Federatsiyasining amaldagi agrar siyosati doirasida qishloq xo'jaligini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari hamda uni tartibga solish tizimini takomillashtirish yo'llari tahlil qilingan. Tadqiqotda dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarida iqtisodiy rivojlanishning hozirgi traektoriyalarini tavsiflovchi asosiy tendensiyalar aniqlangan bo'lib, natijalar pul va natura ko'rinishida baholangan. Olingan natijalar fundamental strategik va dasturiy hujjatlarda belgilangan maqsadlar bilan taqqoslangan. Xulosa sifatida, qator ijobiy natijalarga qaramay, qishloq xo'jaligining hozirgi rivojlanishi mavjud salohiyatni to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiluvchi hamda strategik maqsadlarga erishishni

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 23.10.2019 yildagi PF-5853-son <https://lex.uz/docs/-4567334>



murakkablashtiruvchi muammolar bilan tavsiflanishi qayd etilgan.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ekspertlari o'z hisobotlarida qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlashning atrof-muhitga — havo, tuproq, iqlim, suv va bioxilma-xillikka — ta'siri bo'yicha mavjud ilmiy bilimlarning keng qamrovli sintezini taqdim etganlar. Olingan natijalar asosida OECD metodologiyasiga mos ravishda har bir qo'llab-quvvatlash shakli bilan bog'liq ekologik xavf yoki potensial foyda darajasini tavsiflovchi tipologiya ishlab chiqilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish bilan bog'liq qo'llab-quvvatlash shakllari ekologik salbiy ta'sirlarni keltirib chiqarish ehtimoli yuqori bo'lib, bu ta'sirlar ishlab chiqarish turi, resurslardan foydalanish darajasi hamda ekologik sharoitlarga qarab farqlanadi. Aksincha, agroekologik to'lovlar, xususan, atrof-muhit natijalariga bevosita bog'langan samaradorlikka asoslangan to'lovlar ekologik jihatdan ijobiy ta'sir ko'rsatish ehtimoli yuqori ekanligi aniqlangan. Qo'llab-quvvatlash choralarining haqiqiy ta'sirini baholashda mahalliy sharoitlar, ekologik ko'rsatkichlar hamda tahlil ko'lami (milliy yoki global darajada) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni inobatga olish zarurligi ta'kidlangan.

R. X. Ergashev, Sh. Sh. Fayziyeva va S. N. Xamrayevalarning "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti" nomli darsligida qishloq xo'jaligi tarmog'ining o'ziga xos xususiyatlari, yer-suv, moddiy-texnika va mehnat resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, qishloq xo'jaligi korxonalarining barqaror shakllanishi hamda iqtisodiy samaradorligi ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, istiqbolda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqaror rivojlanish yo'nalishlari aniqlangan, xorijiy tajriba umumlashtirilgan hamda O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarmog'ining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil asosida baholangan.

U. Sangirova va M. Yaxyayevlarning "Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti" nomli o'quv qo'llanmasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, investitsion jarayonlar hamda innovatsion faoliyatni rivojlantirishda bozor munosabatlarining o'rni va ahamiyati keng yoritilgan.

G'ulomov Saidasror Sayidaxmedovichning ilmiy tadqiqotida qishloq xo'jaligini rivojlantirishning obyektiv omillari asoslab berilgan, ushbu sohaga oid nazariy yondashuvlar tahlil qilingan hamda xorijiy mamlakatlarda "qishloq hududlari" tushunchasini aniqlovchi mezonlar umumlashtirilgan. Shuningdek, ularning funksional xususiyatlari yoritilib, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tizimlashtirilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada statistik, qiyosiy, tarkibiy hamda tahliliy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2025-yilga oid press-relizi, rasmiy normativ-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro axborot manbalari tashkil etdi.

Tahlil jarayonida 2025-yil ko'rsatkichlari o'tgan yillar ko'rsatkichlari bilan qiyoslanib, o'sish sur'atlari asosida baholandi. Asosiy e'tibor quyidagi yo'nalishlarga qaratildi: umumiy mahsulot hajmi, dehqonchilik va chorvachilik tarkibi, xo'jalik toifalari ulushi, hududiy tafovutlar, asosiy mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi hamda agrar rivojlanishning institutsional omillari.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmi 508 711,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2020-yildagi 250 250,6 mlrd so'mga nisbatan 203,28 % ga oshgan (1-jadval).

1-jadval

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmi (yillik), mlrd so'm [16]


Hudud nomi	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil	2025-yilning 2020-yilga nisbati, %
O'zbekiston Respublikasi	250 250,6	303 415,5	345 191,7	405 418,0	439 948,0	508 711,1	203,28
Qoraqalpog'iston Respublikasi	9 751,6	11 511,8	13 348,2	15 212,1	16 339,7	19 932,0	204,40
Andijon viloyati	26 096,1	30 413,0	35 587,4	41 035,7	44 074,7	50 263,3	192,61
Buxoro viloyati	23 876,0	28 529,3	32 867,5	37 174,5	40 307,9	47 116,6	197,34
Jizzax viloyati	16 352,8	20 471,1	23 239,2	26 730,0	28 262,2	34 823,4	212,95

Qashqadaryo viloyati	23 777,8	28 275,6	32 240,7	38 462,6	42 239,6	49 950,0	210,07
Navoiy viloyati	11 309,7	14 547,2	15 151,7	18 318,9	20 063,2	23 574,3	208,44
Namangan viloyati	17 913,1	21 596,1	25 157,7	30 015,6	32 497,2	37 620,5	210,02
Samarqand viloyati	32 158,0	38 549,7	40 428,1	49 025,9	54 647,9	57 963,3	180,25
Surxondaryo viloyati	19 424,0	23 415,5	26 755,7	32 849,3	35 234,1	41 023,8	211,20
Sirdaryo viloyati	8 002,0	9 755,0	11 523,3	13 241,2	14 206,1	17 263,2	215,74
Toshkent viloyati	23 875,1	29 538,3	33 010,7	38 779,8	41 311,8	48 794,1	204,37
Farg'ona viloyati	21 455,5	27 501,2	32 737,0	38 326,0	42 347,9	47 840,8	222,98
Xorazm viloyati	16 258,9	19 311,7	23 144,5	26 246,4	28 415,7	32 545,8	200,17
Toshkent shahri	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 2020-yilga nisbatan o'sish sur'atlari tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar Farg'ona (222,98 %), Sirdaryo (215,74 %), Jizzax (212,95 %) hamda Surxondaryo (211,20 %) viloyatlarida qayd etilgan. Boshqa hududlarga nisbatan Samarqand (180,25 %), Andijon (192,61 %) va Buxoro (197,34 %) viloyatlarida o'sish sur'atlarining nisbatan pastligi kuzatilgan.

Mazkur ko'rsatkichlar qishloq xo'jaligi tarmog'ida ijobiy o'sish dinamikasi saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, umumiy ishlab chiqarish hajmining asosiy qismi bevosita dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlariga to'g'ri kelayotgani agrar siyosatda aynan ushbu yo'nalishlar samaradorligini oshirish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

Xo'jalik toifalari bo'yicha o'tkazilgan tahlillar natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 62,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 29,4 % i fermer xo'jaliklariga hamda 8,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishi aniqlangan (1-rasm).



1-rasm. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, foizda [16]

2025-yilda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlari)ning umumiy hajmi 538 919,7 mlrd so'mni tashkil etdi. Shundan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik hamda ushbu sohalarida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 518 822,7 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi 15 081,5 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi esa 5 015,5 mlrd so'mni tashkil etgan.

2025-yilda tirik vaznda go'sht ishlab chiqarish 2 987,5 ming tonnani, sut 12 591,2 ming tonnani, tuxum 9 483,0 mln donani, baliq esa 206,2 ming tonnani tashkil etdi. Mazkur davrda go'sht ishlab chiqarish 101,5 % ga, sut 101,2 % ga, tuxum 107,0 % ga, baliq esa 103,4 % ga oshgan (2-jadval).



2-jadval
2025-yilda chorvachilik mahsulotlari va yetishtirilgan baliq [16]

Mahsulot turi	Hajmi	O'sish sur'ati, %
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	2 987,5	101,5
Sut, ming tonna	12 591,2	101,2
Tuxum, mln dona	9 483,0	107,0
Baliq, ming tonna	206,2	103,4
Jun, tonna	41 485	104,1
Qorako'l teri, ming dona	1 418,0	104,4


Chorvachilik tarmog'ida tuxum ishlab chiqarishning 107,0 % ga o'sishi parrandachilik sohasida nisbatan yuqori sur'atlar mavjudligini ko'rsatadi. Go'sht va sut ishlab chiqarishdagi o'sish esa barqaror, biroq nisbatan sekin shakllanmoqda. Bu holat mazkur tarmoqda naslchilik ishlarini rivojlantirish, ozuqa bazasini mustahkamlash, veterinariya xizmatlarini takomillashtirish, sanoatlashgan chorvachilik majmualarini kengaytirish hamda kooperatsion aloqalarni kuchaytirish zarurligini anglatadi.

Aholi orasida parrandachilik va baliqchilik tarmoqlarining ahamiyati yuqori baholanadi. Ushbu yo'nalishlarda hali to'liq ishga solinmagan imkoniyatlar mavjud bo'lib, ular aholini go'sht va tuxum mahsulotlari bilan ta'minlash, shuningdek, oilalar uchun barqaror daromad manbayini yaratishda muhim o'rin tutadi. Agrofirkmalarni tashkil etish orqali mazkur mahsulotlarni eksport qilish imkoniyatlari ham kengayadi [17]. O'zbekiston Respublikasida 2025-yilda yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan (3-jadval).

3-jadval
2025-yilda yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari [16]

Mahsulot nomi	Miqdori, ming tonna	O'sish (kamayish) sur'ati, %
Donli ekinlar	10 112,1	113,0
Kartoshka	4 160,2	100,2
Sabzavotlar	13 722,8	101,2
Poliz ekinlari	3 299,8	116,2
Meva va rezavorlar	3 479,6	106,4
Uzum	1 983,0	107,6

2-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda qishloq xo'jaligida band bo'lganlar soni 3 132,6 ming kishini tashkil etgan.



2-rasm. Qishloq xo'jaligida band bo'lganlar soni, ming kishi [16]

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida uchta asosiy tendensiya shakllanmoqda.

Birinchidan, tarmoqda umumiy o'sish sur'atlari saqlanib qolmoqda va qishloq xo'jaligi mahsulotlari qiymati yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan, 2025-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining 2020-yilga nisbatan 203,28 % ga o'sishi agrar sohaning iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tarkibi mayda xo'jaliklar ustuvorligi bilan tavsiflanadi. Dehqon va tomorqa xo'jaliklari umumiy mahsulotning 62,3 % ini yetishtirmoqda. Bu holat ularning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi rolini kuchaytiradi, biroq shu bilan birga mahsulotni standartlashtirish, sertifikatlash, saqlash, qayta ishlash hamda bozorga chiqarish jarayonlarida institutsional vositachilik mexanizmlarini rivojlantirish zarurligini yuzaga keltiradi.

2025-yil oxiriga kelib mamlakatdagi 4,3 mln gektar sug'oriladigan yerlarning 2,6 mln gektari, ya'ni 60 % i suv tejoychi texnologiyalar bilan qamrab olingani qayd etilgan. 2030-yilgacha ushbu ko'rsatkichni 100 % ga yetkazish vazifasi belgilangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligining hozirgi holati tarmoqda barqaror o'sish sur'atlari, ishlab chiqarish hajmining kengayishi hamda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishda ijobiy dinamikalar mavjudligini ko'rsatadi. 2025-yilda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari hajmining 538,9 trln so'mga yetgani, bevosita qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining esa 508,7 trln so'mni tashkil etgani agrar sohaning milliy iqtisodiyotdagi salmoqli o'rnini tasdiqlaydi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, dehqonchilik tarmog'i o'sish sur'atlari bo'yicha chorvachilikka nisbatan faolroq rivojlanmoqda, chorvachilikda esa bosh soni ortib borayotgan bo'lsa-da, mahsuldorlikni oshirish asosiy ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Dehqon va tomorqa xo'jaliklari ulushining yuqoriligi ularni kooperatsiya, logistika hamda qayta ishlash zanjirlariga integratsiya qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda, suv tejoychi texnologiyalarni keng joriy etish esa agrar barqarorlikni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, hududiy tafovutlarni kamaytirish uchun har bir viloyatning tabiiy-resurs salohiyati va ixtisoslashuviga mos agrar siyosat yuritish zarurligi aniqlanadi. Mazkur natijalar asosida dehqon va tomorqa xo'jaliklari mahsulotlarini yig'ish, saralash, sovitish, saqlash hamda qayta ishlashga ixtisoslashgan hududiy agrologistika markazlarini kengaytirish, chorvachilikda naslchilikni rivojlantirish, ozuqa bazasini mustahkamlash va veterinariya xizmatlarini takomillashtirish orqali mahsuldorlikni oshirish, suv tejoychi texnologiyalarni joriy etishda subsidiya, imtiyozli kreditlar hamda texnik maslahat xizmatlarini yagona tizimga birlashtirish, hududlar kesimida ishlab chiqarish hajmi, hosildorlik, suv sarfi, eksport salohiyati va qayta ishlash darajasini baholovchi integral reyting tizimini joriy etish hamda fermer, dehqon va tomorqa xo'jaliklarini kooperatsiya asosida qayta ishlash korxonalari va eksportchi subyektlar bilan bog'laydigan shartnomaviy modelni takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Rajapov, X. B. *Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti* [Matn] / X. B. Rajapov. – Xorazm: Khwarezm Travel, 2024. – 88 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019–10–23 dagi “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF–5853-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4567334>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/09/19/agriculture/>
4. Lankoski, J., Thiem, A. Linkages between agricultural policies, productivity and environmental sustainability // *Ecological Economics*. – Elsevier, 2020. – Vol. 178(C).
5. Сычев С. М., Бельченко С. А., Малявко Г. П., Дронов А. В., Осипов А. А. Динамика развития агропромышленного комплекса (на примере Брянской области, 2022–2023 годы) // Вестник ФГОУ ВПО Брянская ГСХА. – 2023. – № 1 (95). – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/dinamika-razvitiya-agropromyshlennogo-kompleksa-na-primere-bryanskoy-oblasti-2022-2023-gody>
6. Килимник Е. В. Особенности развития сельского хозяйства в России в 2019–2023 гг. в условиях санкций // АБУ. – 2025. – № 4. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-razvitiya-selskogo-hozyaystva-v-rossii-2019-2023-gg-v-usloviyah-sanktsiy>
7. Климентова Э. А. Развитие сельского хозяйства: поставленные цели и полученные результаты // Вестник МичГАУ. – 2025. – № 4. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-selskogo-hozyaystva-postavlennyye-tseli-i-poluchennyye-rezultaty>
8. OECD. *Food, Agriculture and Fisheries Papers*, No. 223. – Paris: OECD Publishing, 2025.
9. Yusupov M. S. Jahon amaliyotida qishloq xo'jaligini tartibga solish va qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlari: monografiya. – T.: Iqtisodiyot, 2017. – 282 b.
10. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti: darslik / R. X. Ergashev, Sh. Sh. Fayziyeva, S. N. Xamrayeva. – T.: Iqtisod-Moliya, 2018. – 404 b.
11. Bekmurodov N. X. Qishloq xo'jaligini strategik rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va uni amalga oshirish yo'llari // *Ekonomika i finansy (Uzbekistan)*. – 2021. – № 4 (140). – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ishlo-h-zhaligini-strategik-rivozhlantirishning-ustuvor-y-nalishlari-va-uni-amalga-oshirish-y-llari>
12. Сайфулина А. Ф., Исломова Р. А. Развитие сельского хозяйства Республики Узбекистан в условиях цифровой экономики // *Universum: экономика и юриспруденция*. – 2021. – № 7 (82). – URL: <https://7universum.com/ru/economy/archive/item/12006>
13. Sangirova, U., Yaxyayev, M. *Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti: o'quv qo'llanma*. – TIQXMMI MTU, 2023. – 271 b.
14. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti: uslubiy qo'llanma / I. Salamov, Z. S. Kazakova, M. Nazarova. – Samarqand: “Sogdiana Ideal Print” MCHJ, 2023. – 110 b.
15. G'ulomov, S. S. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning iqtisodiy tahlili, muammo va yechimlari // “Globallashuv va iqlim o'zgarishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash: muammo va yechimlar” Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – 2024. – B. 245.
16. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
17. Salayev, S. K., Rajapov, X. B. *Baliqchilik sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish* [Matn]. – Xorazm: Khwarezm Travel, 2024. – 188 b.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100